# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2024

№ 2




08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

*Elektron nashr. 598 sahifa.*
*E'lon qilishga 2024-yil 29-fevralda ruxsat etildi.*



**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o'rinbosari:**
**Karimov Norboy G'aniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay'ati:**
**Salimov Oqil Umrzoqovich,** O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
**Axmedov Sayfullo Normatovich** i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** i.f.d., TMI professori
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** i.f.n., TDIU professori
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** f.f.d., TDIU professori
**Axmedov Ikrom Akramovich,** i.f.d. TDIU professori
**Po'latov Baxtiyor Alimovich,** t.f.d., profesor
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich,** i.f.d., TDIU professori
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** i.f.d., TDIU professori
**Musyeva Shoira Azimovna,** SamDu IS instituti professori
**Axmedov Javohir Jamolovich,** i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li,** t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi
**Xalikov Suyun Ravshanovich,** i. f. n., TDAU dotsenti
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Rustamov Ilhomiddin,** f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
**Fayziyev Oybek Raximovich,** i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
**Sevil Piriyeva Karaman,** PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li,** TDIU mustaqil tadqiqotchisi
**Utayev Uktam Choriyevich,** O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
**Ochilov Farxod,** O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** TDIU katta o'qituvchisi

**Ekspertlar kengashi:**
**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** i.f.d, TDIU dotsenti
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** i.f.f.d, TDIU dotsenti
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** i.f.d., TMI dotsenti
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** TDIU mustaqil tadqiqotchisi



Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

# MUNDARIJA

Ilm-fanga baxshida umr ....8
**Baxtiyor Islamov**

Kichik biznesni rivojlantirishda “yashil” iqtisodiyotni keng tatbiq qilishning ahamiyati ....10
**Gulnora Abdurahmonova Kalandarovna, Sanjar Baxodirovich G‘oipnazarov**

Brand Capital as a Determinant of Institutional Prestige and Student Choice in the Higher Education System ....16
**Zufarova Nozima Gulamiddinovna**

Inson va atrof-muhit dialektikasi: nomutanosiblik ko‘rsatkichlari va ekologik muammolar ....24
**Butaboyev Maxammadjon Tuychiyevich, Maxmudov Nosir Maxmudovich**

Yashil budjetlashtirish va uni O‘zbekistonda joriy etish istiqbollari ....30
**Meyliev Obid Raxmatullayevich, Gofurova Kamola Xayrulla qizi**

Iqtisodiyotda ta’lim va fan integratsiyasining asosiy yo‘nalishlari ....35
**Yormatov Ilmidin Toshmatovich**

Transport vositalari va yo‘llar turizm transport infratuzilmasini rivojlantirishning muhim omilidir ....39
**Agzamov Shaxboz Akmalovich**

Bank xizmatlarini raqamlashtirish orqali samaradorligini oshirish ....44
**A. X. Salamov**

Biznes-reja baliqchilik xo‘jaligi rivojlanishi uchun asos sifatida ....48
**Dosmuratova Shaxista Kengashovna**

Mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi va uning lizing munosabatlari rivojlanishi bilan bog‘liqligi ....55
**Axmediyeva Aliya Toxtarovna**

Turizmni rivojlantirish imkoniyatlari ....63
**Ziyadullayev Ilhom Narkabilovich**

Tijorat banklari depozit operatsiyalari samaradorligini oshirish muammolari va ularni bartaraf etish yo‘llari....67
**Shamsiyev Nodir Muratovich**

Hududlarni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning samaradorligini oshirish masalalari....72
**Shagazatov Oybek bahodirovich**

Hududlar biznes muhitini rivojlantirish va samarali boshqarish yo‘nalishlari ....76
**Davlatov Sanjar Abdimannonovich**

Ijtimoiy rivojlanish xulq-atvor paradigmasida yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishning nazariy asoslari ....80
**Mirzatov Baxtiyor Toxirovich**

Korxonalar innovatsion faoliyatida raqamli transformatsiyaning muhim yo‘nalishlari ....84
**Yuldasheva Kamola Miraliyevna**

O‘zbekistonda agroturizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish (Buxoro viloyati misolida) ....89
**Yoriyeva Farangiz Murodillayevna**

Innovatsion tadbirkorlik muhitini kompleks baholashda xalqaro tashkilotlar tajribasi....94
**Nazarova Umida Avazovna**

Turizm faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish samaradorligini oshirishning ayrim usullari....98
**Mirzaxodjayev Alisher Botirovich**

Globallashuv sharoitida transchegaraviy suv resurslardan samarali foydalanishni boshqirish ....103
**Mirzayev Musurmon Umidullayevich**

Surxondaro viloyati iqtisodiyotida kichik biznes va tadbirkorlikning o‘rni va ahamiyati....108
**Fayziyeva Aziza Azamat qizi**

Ta’lim muassasalarida xarajatlarni moliyaviy nazorat etishning samaradorligi tahlili....113
**Eshonqulov Davlatjon Rajabboyevich**

Ta’minot zanjirini boshqarishda transport logistikasi usullarini takomillashtirish....119
**Zoxidova Nazokat Berdimurot qizi**

Blokcheyn texnologiyasida xavfsizlik masalalari ....123
**Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich**

Развитие цифровой трансформации банковского сектора Республики Узбекистан ....129
**Абдурахманова Матлуба Махамадаминовна**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Asosiy fondlarni hisoblash va baholash usullarini takomillashtirish istiqbollari....135
**Rixsimbayev Odiljon Qobiljonovich**

Marketingda tovar harakati tizimini optimallashtirish va modellashtirish....141
**Sherzod Xolmurodovich Pardayev, Kamola Abdujabborovna Pardayeva**

Iqtisodiy rivojlanish uchun strategik taqsimlash strategiyalari:
Investitsion Fond Portfellarning qiyosiy tahlili....148
**Sultonboeva Munira bahodirovna**

Soliq munosabatlarining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati: ilmiy-nazariy qarashlar....154
**Axrorov Zarif Oripovich, Saidmurodov Feruz Sodiqjon o'g'li**

Взаимосвязь инвестиционной стратегии с оценкой эффективности инвестиционного проекта....159
**С. С. Алиева, А. Назаров**

Erkin iqtisodiy zonalarning faoliyati va boshqaruv mexanizmini takomillashtirish....167
**Sheraliyeva Saida Azatovna**

Xizmat safari xarajatlari hisobining huquqiy asoslari....170
**Ergashev Sarvar Xudoynazarovich**

Инклюзивное образование и его особенности....175
**Зайнутдинова Умида Джалоловна**

Jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer soliqlarini hisoblash va undirish samaradorligini oshirish yo'llari....179
**Qurbonov Muxiddin Abdullayevich**

Mamlakatda soliq qarzdorligi vujudga kelishining asosiy sabablari va ularni qisqartirish yo'llari....184
**Hakimov Ulug'bek Furqat o'g'li**

Mulk qiymatini baholash tushunchasi, baholash obyektlari, baholanadigan qiymat turlari....188
**Izbosarov Boburjon Bahriddinovich, Yoqubboyev Ilhomjon G'ulomjon o'g'li**

O'zbekistonda sug'urta xizmatlarining zamonaviy transformatsiyasi....193
**G. Adilova**

Biznes subyektlarida samaradorlik masalalarini o'yinlar nazariyasi usuli bilan baholash....197
**Mardiyev Nurali**

Yengil sanoatda "lean production" konsepsiyasini tatbiq etishning amaliy jihatlari....203
**Yaxyayeva Inobat Karimovna**

Soliq salohiyatini baholash usullari va ularning tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga ta'siri tahlili....207
**Borotov Sharofiddin Jumaqul o'g'li**

Ko'chmas mulk bozorini baholashning institutsional asoslari....213
**Ishonqulov Nizamjon Fayzullayevich**

Raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm xizmatlarini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari....221
**Amriyeva Shaxzoda Shuxratovna**

O'zbekistonning bank-moliya tizimi hamda unda Islom moliyasi
instrumentlarini jalb etishdagi joriy tendensiyalar....226
**Eshimov Alisher Dusmurodovich**

Tashqi savdoda notarif usullarni qo'llashning iqtisodiy oqibatlarini aniqlash
metodologiyasi (rivojlangan davlatlar tajribasi)....234
**Norqobilov Akobir Iso o'g'li**

Reklama xizmatlari va uning subyektlar samaradorligini oshirishdagi imkoniyatlari....240
**Rabbimov Elbek Abdulloyevich**

Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirish asoslari....245
**Imonqulov Nuriddin Qo'shmon o'g'li**

Tijorat banklari biznes ekotizimini rivojlantirishning nazariy asoslari....250
**Shoymardonov Orziqul Jo'ra o'g'li**

Majburiy tibbiy sug'urtaning vujudga kelishi va o'ziga xos xususiyatlari....256
**Kenjayev Soxib Sayfiyevich**

O'zbekiston Respublikasida zamonaviy soliq ma'murchiligini joriy etish orqali budjet-soliq siyosati
samaradorligini yanada oshirish....260
**Yuldasheva Shaxnoza Xojiakbar qizi**

Jahon iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida derivativlar bozorining roli....266
**Shokirov Mirkamol Mirolim o'g'li**

Boshqaruv hisobida mas'uliyat markazlarini tashkil etish masalalari....274
**Sobirov Otabek Olimjonovich**

Davlat moliyasini boshqarishda moliyaviy nazorat usullaridan samarali foydalanish yo'llari ....... 277
**Kultayev Farxod Shavkatovich**

Tijorat banklari foydasi va rentabillik ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi omillar tahlilini takomillashtirish ....... 281
**Normo'minov Temurbek Sheraliyevich**

O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari aktivlar sifatini oshirish yo'llari ....... 284
**To'ychiyev Otabek Shamshiyevich**

Venchur kapitalining mohiyati va O'zbekistonda venchur tizimini rivojlantirishning institutsional asoslari ....... 288
**Tadjibayeva Nigora Gulomjonovna**

Innovatsiyalar: zamonaviy iqtisodiyot uchun innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash zarurati ....... 293
**Malikova Dilrabo Muminovna, Tursunov Jahongir Ulug'bek o'g'li**

Budjet daromadlarining shakllanishida egri soliqlarning ta'sirini ko'p omilli ekonometrik modellashtirishda tahlil qilish ....... 297
**Abdunazarova Shahnoza Norqo'chqor qizi**

Aksiyadorlik jamiyatlarida investitsion jozibadorlikni oshirish yo'llari ....... 302
**Abdullayev Boburjon Akbaralievich**

Barcha tadbirkorlik subyektlariga teng raqobat sharoitini yaratishda soliq imtiyozlarining o'rni ....... 306
**Akbarov Akmalxon Akrom o'g'li**

Hisob siyosati va unda biologik aktivlar hisobini yoritib berish tartibini takomillashtirish ....... 310
**Mirzayeva Nargiza Batirovna**

Talabalarning oilali bo'lishiga ta'sir etuvchi omillarga iqtisodiy baholashda yangicha yondashuv ....... 314
**O. U. Shomurodov, A. A. Suyarov, Z. U. Uroqov, J. S. Urazov, A. T. Ablahatov**

Ways to Use the Experience of Foreign Countries in Creating a Beneficial Business Environment for Entrepreneurship And Improving Taxation ....... 319
**Mukhlisa Ikramova**

Aholi turmush darajasini oshirishda moliyaviy savodxonlikning o'rni va iqtisodiy rivojlanishga ta'siri ....... 325
**Yusupov Muhammadali Soxib o'g'li, J.D. Xojiyev**

Temir yo'l sanoat korxonalarida ijtimoiy-mehnat munosabatlarini boshqarish bo'yicha xorijiy tajriba ....... 329
**Kadirova Sharofat Amonovna**

Механизм внедрения аутсорсинговой деятельности в АО "Ўзтемирйўлйўловчи" ....... 332
**Н. Э. Кахарова**

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish investitsiyalarni jalb qilishda xorijiy mamlakatlar tajribasi ....... 337
**Sharipov Bobur Anvar o'g'li**

"STEKLOPLASTIK" MJCHning bozordagi strategik holatini tahlil qilish ....... 342
**Musyeva Shoira Azimovna**

Agrar sektorda ekologik toza mahsulotlarni ishlab chiqarishning nazariy masalalari ....... 348
**M. Sh. Nazarova, Z. S. Kazakova**

Methodological Foundations of Bank Lending and Classification of Factors Affecting the Features of Obtaining Loans ....... 353
**Raxmanova Laylo bahodirovna, A. Karimova**

Agrosanoat klasterlarda tovar-moddiy zaxiralar samaradorligiini KPI orqali baholash uslubiyati ....... 357
**Toshpo'latov Azizbek Shermuxamadovich**

Faol tadbirkorlar faoliyatida kambag'al oilalarni iqtisodiy-ijtimoiy holatini yaxshilash imkoniyatlari ....... 362
**Salamov Ibrohim, Nazarova Maryam Sharifovna, Kazakova Zulayxo Saloxiddinovna, Jonibekov Faxriddin Beknazarovich, Kudratov Rizo Turdibayevich, Ulmasova Oygul Baxtiyorovna, Xamdamova Nasiba Ablakulovna, Xudayberdiyeva Ma'rifat Umarovna**

Xo'jalik yurituvchi subyektlar strategiyasi tahlilining o'ziga xos xususiyatlari ....... 369
**Tursunova Shaxnoza Farxod qizi**

Процессы цифровизации АО "Hududgazta'minot" ....... 373
**Хусанов Кахрамон Нишонович**

O'zbekistonda aholi turmush darajasini oshirish yo'llari ....... 378
**Abdullayeva Madina Kamilovna, Eldorbekov G'ofurbek Iskandarbek o'g'li**

Aholi farovonligini oshirishda tadbirkorlik subyektlari uchun kredit tizimini takomillashtirish mexanizmi ....... 381
**Bobayev Isroiljon Abdinabiyevich**

Mamlakatga jalb qilingan xorijiy kapitalning tovarlar va xizmatlar importi salohiyatiga ta'sirini ekonometrik modellar bilan baholash ....... 386
**Saydullayev Azamat Jo'raqul o'g'li**

O'zbekistonda bank xizmatlari raqobatbardoshligini baholash mazmuni va o'ziga xos xususiyatlari ........ 394
**Sh. Madraimov**

Kapital bozorida sug'urta kompaniyalar institutsional investor sifatida ........ 397
**Xasanova Lola Mamasharifovna**

Yangi O'zbekiston strategiyasida institutsional islohotlarni yanada chuqurlashtirish va ko'p funksiyali raqamlashtirishning ilmiy asoslari ........ 400
**B. B. Berkinov**

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari orqali jinoiy yo'l bilan olingan daromadlarni legallashtirish mexanizmlari ........ 409
**G'afurov Umidjon Bahodir o'g'li**

Rivojlangan mamlakatlarda keksa fuqarolarning bandligini oshirish kam ta'minlangan aholi qatlamini qo'llab-quvvatlash usuli sifatida (Yaponiya tajribasi misolida) ........ 413
**Karimov Bekzodjon Ilxomovich**

Tashqi savdoni oshirishda boj-tarif siyosatini takomillashtirish mexanizmlari ........ 420
**Pardayev Ilhomjon G'ulomjon o'g'li**

Финансы или корпоративные финансы ........ 426
**Уринов Бобур Насиллоевич**

In Ensuring Economic Development in the Country Green Economy and its Features ........ 432
**Akhunova Shakhistakhon Nomonjanovna, Abdusattorova Mokhirabonu Abdugoppor kizi**

Tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari ........ 437
**Jo'rayev O'ktam Panji o'g'li**

Сокращение уровня бедности в Узбекистане ........ 443
**АмирджановаСитора Суннат кизи**

Paxtachilik sohasida ishlab chiqarish jarayonlari samaradorligini oshirishning innovatsion yechimlari va uning foydaga ta'sirini baholash ........ 448
**S. B. Inoyatov**

Tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishlash amaliyotidagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari ........ 453
**Maxmudov Rahimjon Hamid o'g'li**

Mahalliy budjet daromadlarining nazariy va ilmiy asoslari ........ 460
**Ollokulova Feruza Mansurovna**

Kambag'allikni qisqartirish – aholi turmush farovonligini ta'minlashning muhim omili ........ 463
**Usmanov Baxodir Baxtiyorovich**

Raqamli marketingni rivojlantirish zaruriyati ........ 469
**Xalmuxamedova Zeboxon Babaxanovna**

Tijorat banklari o'rtasidagi raqobatni rivojlantirish orqali fond bozorida aksiyalar narxini barqarorligini ta'minlash istiqbollari ........ 473
**M. Yuldosheva**

Konchilik sanoati korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish mexanizmlarining ilmiy-nazariy asoslari ........ 480
**Kurbanova Mehriniso Nematjanovna**

O'zbekistonda banklar moliyaviy xizmatlari va ular sifatining amaldagi holati tahlili ........ 487
**Mirzayev Mirza Abdullayevich**

Oliy ta'lim muassasalarining iqtisodiy samaradorlikning raqobatbardoshligini instituttsional tahlil qilish mexanizmi ........ 492
**Saydullayeva Saodat Abdumajidovna**

Integrasiya sharoitida to'qimachilik sanoatining rivojlanishi ........ 499
**Ziyayeva Muhtasar Mansurdjanovna**

Auditorlik tekshiruvini tashkil etish va o'tkazish jarayonlarini takomillashtirish ........ 503
**Karamatova Noiba Husnitdinovna**

Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning nazariy jihatlari ........ 510
**Mamatov Mamajan Axmadjonovich**

Экономическое сознание и экономическое мышление: теоретический анализ ........ 517
**Пардаев Мамаюнус Каршибаевич, Мухаммедов Мурод Мухаммедович**

O'zbekiston respublikasi tijorat banklari tomonidan qurilish korxonalarini kreditlashni takomillashtirish yo'llari ........ 522
**Sultanov Baxram Begdullayevich**

Роль искусственного интеллекта в современных технологиях медиаобразования в высших учебных заведениях ........ 526
**Самигова Гуландом Абдужаббаровна**

Talabalarga moliyaviy yordam dasturlari va ularning ta'lim sifatiga ta'siri ........ 534
**Mirzayeva Muhlisa Ubaydullo qizi**

Mintaqaviy investitsion jozibadorlik va investitsion siyosat: nazariy talqin ........ 539
**Muminov Akmal Tulkunovich**

Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida oliy ta'lim tizimining ta'siri ........ 543
**Nasimov Adiz Azamat o'g'li, Baxtiyorova Jasmina Jasurovna, Axrorov Zarif Oripovich**

Respublikada fermer xo'jaliklarga xizmat ko'rsatishni rivojlantirish va agroxizmatlar bozorini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari ........ 548
**Shukurov Ilxom Safarboyevich**

Turli mamlakatlarda oliy ta'limni moliyalashtirish yo'llari ........ 555
**Umarova Moxigul Maxmayunus qizi**

Dehqonchilikni innovatsion asosda rivojlantirishning xorijiy tajribasi ........ 560
**Yuldashev G'iyos Turabekovich**

Tijorat bank xizmat turlarini islomiy bank xizmatlari orqali rivojlantirish istiqbollari ........ 564
**Bayjanova Gozzal Sarsengaliyevna**

Qishloq xo'jaligi mahsulotini baholash va hisobga olishning uslubiy jihatlarini takomillashtirish ........ 570
**Boltayev Abror Sayitmuradovich**

Секреты интересного урока в начальной школе ........ 577
**Гараева Олеся Владимировна**

Iqtisodiyotni barqaror rivojlanishda yashil iqtisodiyotning o'rni ........ 580
**Ibragimova Gulchehra Toxirovna**

Mahsulot va xizmatlarni raqamli transformatsiyasini amalga oshirish algoritmi ........ 584
**Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, Bobojonov Azizjon Babaxanovich, Abdurakhmonov Abdumalik Abdurashidovich**

O'zbekiston Respublikasining soliq tizimi mamlakatda yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish vositasi sifatida ........ 591
**Nabiyev Feruz Nurmurodovich**



# O'ZBEKISTONNING BANK-MOLIYA TIZIMI HAMDA UNDA ISLOM MOLIYASI INSTRUMENTLARINI JALB ETISHDAGI JORIY TENDENSIYALAR

**Eshimov Alisher Dusmurodovich**
"O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy-tadqiqot markazi mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bank-moliya tizimida islom moliyasi instrumentlarini joriy etish imkoniyatlari, O'zbekiston bank-moliya tizimining statistik tahlillari, ko'rsatkichlari, islom moliyasi instrumentlarini joriy etishda xorijiy olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari o'rganilgan. Tahlillar asosida islom moliyasi instrumentlarini joriy etish muammolar ochib berilib, ularni bartaraf etish yo'nalishlari taklif etilgan.

Kalit so'zlar: bank, moliya, islom moliyasi, instrument, amaliyot, kapital, investitsiya, tadbirkorlik, portfel, kredit, xizmatlar, samaradorlik, islohot, xarajat, daromad, foiz.

Abstract: This article explores the possibilities of introducing instruments of Islamic finance in the banking and financial system, statistical analysis, indicators of the banking and financial system of Uzbekistan, scientific and theoretical views of foreign scientists in the introduction of instruments of Islamic finance. On the basis of the analysis, the introduction of instruments of Islamic Finance revealed problems and proposed directions for their elimination.

Key words: banking, finance, Islamic finance, instrument, practice, capital, investment, entrepreneurship, portfolio, credit, services, efficiency, reform, cost, income, percentage.

Аннотация: В данной статье рассмотрены возможности внедрения исламских финансовых инструментов в банковско-финансовую систему, статистический анализ, показатели банковско-финансовой системы Узбекистана, научно-теоретические взгляды зарубежных ученых на внедрение исламских финансовых инструментов. На основе анализа были выявлены проблемы внедрения исламских финансовых инструментов и предложены пути их преодоления.

Ключевые слова: банк, финансы, исламские финансы, инструмент, практика, капитал, инвестиции, предпринимательство, портфель, кредит, услуги, эффективность, реформа, стоимость, доход, процент.

## KIRISH

Bozor munosabatlarining muhim bo'g'inlaridan biri bo'lgan bank tizimini isloh qilish va erkinlashtirish zamirida iqtisodiyotni rivojlantirish, xalqaro bank tizimi talablariga mos keluvchi mahalliy banklar faoliyatini tashkil qilish va ular faoliyatini yanada takomillashtirish shu kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Jamiyat yaxshi taraqqiy qilgan bank tizimi va banklar faoliyatiga ega bo'lmasdan sog'lom taraqqiy qilishi mumkin emas.

Iqtisodiyotni samarali boshqarish uning muhim subyekti bo'lgan banklar faoliyatini o'rganishni, ularning ishlash usullari, funksiya va operatsiyalarini bilishni taqazo qiladi[1]. Xalqaro bank amaliyotida bank ustav kapitalining minimal miqdori 5 mln. AQSh dollari atrofidagi miqdorni tashkil etadi. Shu sababli, bank kapitalini xalqaro andozalar bo'yicha yetarli bo'lishi uchun 5 mln. AQSh dollari miqdorida shakllantirish lozim.

Kredit qo'yilmasi tadbirkorlar, fuqarolar va boshqa tashkilotlar o'rtasida moliyaviy omonatlarni oshirishning muhim vositasidir. Har qanday tijorat banki kredit siyosatining maqsadi odatda quyidagilardan iborat bo'ladi: kredit qo'yilmalari hajmining o'sishi, risk yuqori bo'lgan operatsiyalarning oqilona diversifikatsiyasini, o'rta va uzoq muddatli kredit qo'yilmalari hajmini keskin oshirish va ularning samaradorligini ta'minlashga yo'naltirilgan bo'ladi[2].

1 Sh. Abdullayeva. Bank ishi. Darslik. Toshkent moliya instituti. 2003-yil. 3-bet.
2 Sh. Abdullayeva. Bank ishi. Darslik. Toshkent moliya instituti. 2003-yil. 211-bet.

Tijorat banklari kreditlarni berish orqali kredit portfeli hajmini oʻsishga intilishadi. Bu, bankning moliyaviy tarmoqda rivojlanishini va moliyaviy islohotlarni oshirishini taʼminlash imkonini beradi. Tijorat banklari riskni kamaytirish va tarmoq hodisalarini oʻzaro bogʻlash maqsadida kredit portfelini diversifikatsiya qilishga intilishadi. Bu, bir nechta sohalar boʻyicha kredit bermoq orqali riskni taqsimlash va umumiy risk darajasini kamaytirish imkonini beradi.

Banklar oʻrta va uzoq muddatli kreditlarga qiziqish koʻrsatadi, chunki ular kredit darajasi va bankning samaradorligi uchun muhimdir. Oʻrta va uzoq muddatli kreditlarning hajmini oshirish, bankning uzluksiz ravishda moliyaviy tuzilmalarni rivojlantirishini taʼminlashiga qoʻshimcha imkoniyat yaratadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

G.F. Gresh Markaziy Osiyoda Islomiy bank va moliya oʻsib bormoqda. Sovet Ittifoqi qulaganidan va 1991-yilda yangi milliy davlatlar tashkil topganidan beri mintaqadagi musulmon respublikalari Islomiy moliya institutlarining sezilarli darajada koʻpayishiga guvoh boʻlishdi. Bundan tashqari, Islomiy bank va moliya Islom olimlari tomonidan ushbu mintaqaning tashqarisidagi boshqa Islomiy davlatlar bilan iqtisodiy blokni shakllantirishning innovatsion usuli sifatida qaralmoqda. Jahon bozorlariga kirishning kalitlaridan biri bu milliy va mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va liberal iqtisodiy islohotlarga homiylik qilishdir, deb keltiradi[3].

A. Sharipov va N. Yuldashevlar aholisi va anʼanaviy Islomiy ildizlari boʻlgan Oʻzbekiston, ehtimol, Markaziy Osiyoda Islomni moliyalashtirish uchun eng istiqbolli bozorlardan biri hisoblanadi. Ammo shuni aytish joizki, yaqin vaqtgacha Oʻzbekistonda bank-moliya xizmatlari sohasi va biznesi Islomiy moliyani tushunish va tushuntirish bilan cheklangan edi. Oʻzbekistonda Islomiy moliya vositalariga boʻlgan tabiiy va oʻsib borayotgan talab, Islomiy moliya va shariatga mos investitsiyalarni joylashtirish uchun tartibga soluvchi platformaning yoʻqligidan farq qiladi. Oʻzbekiston asosan Islomiy aholiga ega dunyoviy davlatdir va shariatga asoslangan tamoyillarni qabul qilish bilan bogʻliq har qanday islohoti bank-moliya sohasini rivojlantirishga asos boʻlib xizmat qilishi mumkin, deb taʼkidlaydi[4].

J. Imamnazarov Islomiy bank tizimi deganda barcha moliyaviy faoliyat Islom qonunlari asosida amalga oshiriladigan bank tizimi tushuniladi. U odatdagi banklar singari maqsad va operatsiyalarga ega, yaʼni iqtisodiy faoliyatni kuchaytirish uchun iqtisodiyot ichidagi pul oqimini yengillashtirishdan iboratdir. Biroq odatdagi banklardan farqli oʻlaroq, Islomiy banklarni boshqarish tamoyillari har qanday bitim va biznes operatsiyalarida adolatni taʼminlash bilan birga tomonlar oʻrtasida xavf va foydani oʻzaro taqsimlashdir. Islom Moliya institutlarining muvaffaqiyati hozirda koʻplab anʼanaviy banklarning eʼtiborini tortmoqda[5].

A. S. Tursunov tijorat banklari va Islom banklari bajaradigan funksiyalariga koʻra umumiy va oʻziga xos xususiyatlari mavjud. Tijorat bankidagi asosiy maqsad foydani koʻpaytirish, Islom bankida esa shariat qoidalariga qatʼiy rioya qilgan holda foydani koʻpaytirishdir. Islomiy banklarning anʼanaviy banklardan asosiy farqi shundaki, anʼanaviy banklarda pul sotiladi va birjadan tashqari daromad olinadi, Islomiy banklarda esa tovarlar sotiladi va daromad olinadi[6].

B.A. Malik Islom shunchaki din emas, balki eʻtiqod mazmunidan tashqarida boʻlgan umumiy xulq-atvor meʼyorlarini ratsionalizatsiya qilishdir. Iqtisodiyot, siyosat, ijtimoiy jihatlar va din bir-biri bilan chambarchas bogʻliq boʻsababli hayotga yaxlit yondashuvni tasdiqlaydi. Islom eʼtiqodining yaxlit yondashuvi bilan bogʻliq holda, shaxs Islom qonunlarining buyruqlarini aniqlashga rozi boʻladi. Ushbu shartnoma iqtisodiy va moliyaviy ishlarga ham murojaat qiladi deb keltirib oʻtgan[7].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishimizni yoritishda, tahlil, sintez iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanildi. Tahlillar mamlakatimizda bank-moliya tizimida islom moliyasi instrumentlarini joriy etishning imkoniyatlari, bu boradagi muammolar va sohaga oid boshqa bir qator muammolar aniqlandi. Maʼlumotlarni analiz tahlil va statistik tahlil usullaridan foydalanib bank-moliya tizimida islom moliyasi instrumentlarini joriy etishning ahamiyatini ochib berishga harakat qilindi. Natijada muammolar aniqlanib, muammolarga tegishli ilmiy asoslangan takliflar berildi va ilmiy asoslangan xulosalarga kelindi. Tadqiqot obyekti sifatida mamlakatimiz bank-moliya tizimi oʻrganildi.

---

3 Gresh G. F. The rise of Islamic banking and finance in Central Asia //Al Nakhlah. – 2007. – T. 9.

4 Atabek Sharipov and Nodir Yuldashev Islamic finance and markets in Uzbekistan October 1 2019 https://www.lexology.com/library/detail.aspx?g=9aaf1dd8-417e-408c-ba8f-79e069edf65c

5 J. Imamnazarov Development opportunities of Islamic finance in Uzbekistan // SAI. 2023. №A1. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/development-opportunities-of-islamic-finance-in-uzbekistan (дата обращения: 24.02.2024).

6 Tursunov A. S. et al. Establishment Of Islamic Banking In Uzbekistan //European Proceedings of Social and Behavioural Sciences. – 2021.

7 Malik B. A. Halal banking in post-soviet central Asia: Antecedents and consequences //Marketing and Branding research. – 2015. – T. 2. – C. 28-43.



TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklarining asosiy maqsadi moliyaviy ravishda samaradorlikni ta’minlashdir. Ular kredit berish jarayonlarini samarali boshqarish, to‘qish va boshqa texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash orqali samaradorlikni oshirishga intilishadi. Tijorat banklari moliyaviy tizimning tarmoq bo‘yicha o‘zaro bog‘lanishini kuchaytirish, kredit so‘rovlari va qaytarishlarni avtomatlashtirish yoki maxsus xizmatlar taklif qilish orqali kredit qo‘yishning moliyaviy tuzilma uchun samarador bo‘lishiga intilishadi.




1-rasm: 2024-yil 1-yanvar holatiga 2023-yilga nisbatan tijorat banklari kredit qo‘yilmalarining tarmoqlar bo‘yicha ulushi o‘zgarishi (foizda)[8].

1-rasmda avvalgi yilga nisbatan tijorat banklari kredit qo‘yilmalarining tarmoqlar bo‘yicha ulushi o‘zgarishi (foizda) tasvirlangan. Hamda eng ko‘p o‘sish jismoniy shaxslar uchun 47 foiz, uy-joy kommunal xizmati 24 foiz, hamda qurilish va transport va kommunikatsiya sohalarida mos ravishda 18 va 16 foizni tashkil qilgan. Yuqorida ta’kidlanganidek, bu holat ijobiy hisoblanib mamlakatning moliyaviy islohotlarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Ma’lumki, bank tizimi daromadlilik darajasi tahlil qilinayotganda bir qator ko‘rsatkichlar inobatga olinadi. Masalan, foizli va foizsiz daromadlar, foizli va foizsiz xarajatlar. Yuqoridagi iboralarga ta’rif beradigan bo‘lsak, fozili daromadlar bu pul mablag‘lari yoki ularning ekvivalentlaridan foydalanganlik uchun olingan daromaddir. Shuningdek, foizli daromad har qanday diskont, mukofot yoki qarz qimmatli qog‘ozlari yoxud ssudalarning boshlang‘ich balans qiymati bilan ularning so‘ndirish summalari o‘rtasidagi boshqa farqlarning amortizatsiya summasini o‘z ichiga oladi[9].

Foizlar bo‘yicha xarajatlar talab qilib olingungacha bo‘lgan depozitlar hisobvaraqlari, muddatli omonatlar, Markaziy bank va boshqa tijorat banklariga to‘lovlar, shuningdek, to‘lanadigan kreditlar bo‘yicha xarajatlar nazarda tutiladi.

Umuman olganda foizli xarajatlar – bu barcha majburiyatlar bo‘yicha to‘plangan foiz summasi demakdir. Foizsiz xarajatlarga esa komission xarajatlar va xizmatlar uchun xarajatlar (masalan, bank reklamasi yoki tadbirlarni o‘tkazish), xorijiy valyuta kursining salbiy o‘zgarishlaridan yo‘qotishlar, investitsiyalar va boshqalar kiradi. Shuningdek, ba’zi olimlar bank operatsiyalari bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liq bo‘lgan xarajatlar – operatsion xarajatlar ham tavsiflanadi.

Shu o‘rinda bank tizimi daromadlilik ko‘rsatkichlarini tahlil qilib o‘tish o‘rinli bo‘ladi. Quyidagi jadvalda mazkur sohaning 2023-2024-yillardagi holati aks ettirilgan (1-jadval).

---

8 O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi. https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats/1569298/

9 Sh. Abdullayeva. Bank ishi. Darslik. Toshkent moliya instituti. –2003-y. –131-b.

1-jadval: Bank tizimi daromadlilik ko'rsatkichlari (mlrd. so'mda)[10]

| Bank tizimi daromad va xarajatlari | 01.01.2023-y. | 01.01.2024-y. |
|---|---|---|
| Foizli daromadlar | 61 728 | 86 679 |
| Foizsiz daromadlar | 33 182 | 42 054 |
| Foizli xarajatlar | 37 566 | 57 683 |
| Foizsiz xarajatlar | 11 812 | 13 273 |
| Soliq to'langunga qadar sof foyda (zarar) | 12 579 | 15 155 |
| Foyda solig'ini to'lash xarajatlari | 2 587 | 2 775 |
| Sof foyda (zarar) | 9 993 | 12 380 |

So'nggi yillar bank tizimi, moliyaviy sohalarda ko'plab o'zgarishlar yuzaga keldi. 2023-yilda (1-yanvar holatiga ko'ra) mamlakatimiz bank tizimi 9 trillion 993 milliard so'm sof foyda bilan, 2024-yilning xuddi shu davriga esa 12 trillion 380 milliard sof foyda bilan o'tgan. Moliyaviy siyosat, moliyaviy vaziyatning o'zgarishi, qonun hujjatlari va boshqa faktorlar, banklarning daromadlilik ko'rsatkichlarini oshiriadi.

2024-yilda banklarning daromadlilik ko'rsatkichlarining ko'p oshishiga olib kelgan omil iqtisodiy rivojlanish hamdir. Agar mamlakatimizda iqtisodiy ko'rsatkichlar o'ssa, odamlar katta miqdorda pul o'tkazishga qodir bo'lishadi. Bu esa banklar uchun moliyaviy mablag'larni kengroq jalb etish imkoniyatini yaratadi.

Quyidagi 2-rasmda 2023-yil 1-yanvar holatiga ko'ra O'zbekiston tijorat banklarining jami aktivlari qiymati, jami kredit qo'yilmalari, shuningdek, jami depozitlar va jami kapital hajmi (milliard so'mda) aks ettirilgan. Unga ko'ra mazkur davrda jami bank aktivlari 556 trillion 746 milliard so'mni, kredit qo'yilmalari esa 390 trillion 49 milliardni, jami depozitlar 216 trillion 738 milliard so'mni, shuningdek, jami kapital 79 trillion 656 milliard so'mni tashkil qilgan.




2-rasm: 2023-yilda bank tizimi faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari (mlrd. so'mda)[11]

2023-yilga nisbatan 2024-yilda avvalgi davrga nisbatan o'sishda pasayish bo'lgan. 2024-yilda mamlakatimizda bank aktivlari o'tgan davrga nisbatan 45 foizga oshgan bo'lsa 2023-yilda bu ko'rsatkich 48 foizni tashkil qilgan. 2024-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra jami kredit qo'yilmalari o'tgan yilga nisbatan 49 foizga ortgan bo'lsa, 2023-yilda mazkur sohada 49 foiz o'sish kuzatilgan.

Tijorat banklarining jami depozitlari va jami kapitalning yillik o'sishi borasida ham shu tendensiya saqlanib qolgan bo'lib, 2024-yilda bu ko'rsatkichlar, mos ravishda, 30 va 0,4 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2023-yilning xuddi shu davrida bu ko'rsatkichlar, mos rabishda, 39 va 0,5 foizni tashkil qilgan (3-rasm).

10 O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi. https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats/1569298/

11 O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi. https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats/1569298/



TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS




3-rasm: 2024-yilda bank tizimi faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari (mlrd. so'mda).

Tijorat banklari, boshqa xo'jalik subyektlari kabi o'zining xo'jalik va tijorat faoliyatini ta'minlash uchun ma'lum miqdorda pul mablag'lariga, ya'ni resurslariga ega bo'lishlari lozim. Iqtisodiyot rivojlanishining zamonaviy talablarida bank resurslarini tashkil etish muammosi bank faoliyatini bir maromda olib borish uchun birinchi darajali hisoblanadi. Buni shunday izohlash mumkin, ya'ni iqtisodiyotning bozor modeliga o'tishi bilan bank ishida davlat monopoliyasi tugatiladi, ikki bosqichli bank tizimini shakllanishida bank resurslari xarakteri ijobiy tomonga o'zgaradi.

Undan tashqari, uning aktiv operatsiyalari obyekti orqali aniqlanadigan bank faoliyatining ko'lami, ular joylashtiradigan resurslar hajmi, miqdori, jalb qilingan mablag'lar summasiga bog'liq bo'ladi. Bunday holat resurslarni jalb qilish bo'yicha banklar o'rtasida raqobatni keltirib chiqaradi.

Bankning asosiy vazifalaridan biri bo'sh pul mablag'larini mumkin qadar ko'proq jalb qilish va ularni boshqa foyda keltiruvchi optimal aktivlarga joylashtirishdan iborat. Ma'lumki, banklarni ustav kapitalining minimal miqdorini belgilanishi banklarni har xil risklardan saqlash maqsadida belgilanadi. Chunki bank ustav fondi qancha katta bo'lsa, uning resurslari ham shuncha ko'p bo'ladi.

Hozirgi vaqtda dunyo miqyosida 80dan ortiq mamlakatda bir ming to'rt yuzga yaqin islom moliya muassasalari mavjud bo'lib, Xalqaro Valyuta Jamg'armasi ma'lumotiga ko'ra, so'nggi 10 yil ichida bank tizimida islom moliya muassasalarining muhim o'rni borligini ko'rsatib berdi. E'tiborlisi, islom moliya muassasalari nafaqat musulmon o'lkalarda, balki Yevropa davlatlarida, Kanada, Filippin va Singapur kabi musulmonlar hamjamiyati ozchilikni tashkil qiladigan mamlakatlarda ham mavjud.

Global islom moliya sanoati 2020-yilda barqaror rivojlanib borayotganligini isbotladi. Pandemiyaning birinchi yili, uning jami aktivlari hajmi oshib ketdi 14%, lekin keyingi-yilda u yanada ko'proq ko'rsatdi 17% o'sish Koviddan oldingi darajadan yuqori bo'lgan xarakterga ega aktivlarini 4 trillion AQSH dollariga ko'tardi.

Mazkur tendensiyani O'zbekistonda ham joriy etish yuzasidan allaqachon qadam tashlangan bo'lib, 2021-yil sentyabrda Toshkentda o'tkazilgan Islom Taraqqiyot Bankining yillik sammitida "Iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish jamg'armasi" tuzildi. Boshlang'ich kapitali 100 million AQSh dollariga teng bo'lgan jamg'arma mablag'larining 35 mln AQSh dollari O'zbekiston hukumati, 20 mln AQSh dollari ITB va qolgan 45 million AQSh dollari saudiyalik investorlar tomonidan moliyalashtiriladi. Sinov bosqichi muvaffaqiyatli o'tgandan so'ng boshlang'ich fond miqdori asta-sekin 500 million AQSh dollariga yetkazilishi rejalashtirilgan.

"Obod qishloq" dasturi doirasida Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Buxoro va Navoiy viloyatlarining qishloq infratuzilmasini modernizatsiya qilish bo'yicha jami 200 million AQSh dollarlik qarz shartnomasi tuzildi. Bunga qo'shimcha ravishda Xalqaro Islom savdo-moliya korporatsiyasi va "Trastbank" 15 mln AQSh dollarlik savdo-moliya linyasini ochish to'g'risida kelishuvga erishdi.

Shuninigdek, O'zbekistonda onkologik xizmatlarni rivojlantirish loyihasini qo'llab-quvvatlash uchun 80 million AQSh dollar qarz shartnomasi imzolandi.

Islom taraqqiyot banki tomonidan O'zbekistonda Islom banki va moliya sohasining huquqiy asoslarini ishlab chiqishni qo'llab-quvvatlash uchun texnik yordam granti ajratilishiga kelishib olindi.

4-rasmda islom banklarining bank va investorlar o'rtasida omonatlar, investitsiyalar bilan, shuningdek, bank va mijoz o'rtasida moliyalashtirish yoki investitsiyalash qanday operatsiyalar orqali amalga oshirilishi tasvirlangan.




4-rasm: Islom banklarining ishlash mexanizmi[12]

An'anaviy banklardan farqli o'laroq (5-rasm) islom banklari faqatgina foiz asosida ish yuritmaydi, balki bank va investor o'zaro vadia, vakala, mudoraba shartlari yoki qarz asosida munosabatga kirishadi.




5-rasm: An'anaviy banklarning ishlash mexanizmi[13]

Mijozga esa murobaha, salam, ijara, istisna, mudoraba va mushoraka shartlari asosida munosabatga kirishadi. Tadqiqotning birinchi bobida bu nazariyalar keng yoritilgani bois, islom banklari sherikchilik va foydani taqsimlash prinsipiga, unga ters ravishda an'anaviy banklar faqatgina foiz asosida moliyaviy munosabatlarni yo'lga qo'yishi ikkala bank tizimlari uchun berilgan eng umumiy ta'rif deyish mumkin.




6-rasm: 2015-2021-yillarda (2026-yil prognozi) dunyo bo'ylab islom moliyasi aktivlari qiymati (trillion AQSH dollarida)[14]

---

12 Muallif tomonidan ishlandi.
13 Muallif tomonidan ishlandi.
14 ICD – Refinitiv Islamic Finance development report 2022: Embracing change, p-8.

6-rasmda Islom moliyasi aktivlarining dunyo bo‘ylab 2015-2021-yillardagi o‘sish tendensiyasi tasvirlangan bo‘lib, 2018-yildagi ko‘rsatkichni hisobga olmaganda faqat o‘sishga erishilgan. Shuningdek, 2019-yildan keyin, hatto pandemiya davrida ham yillik 10 foizdan kam bo‘lmagan. Tahlilchi iqtisodchi olimlarning 2026-yilga berayotgan prognozlari islom moliyasi olami aktivlarining yillik o‘sishi o‘sha davrga borib 5,9 trillion AQSh dollarini tashkil qilishini ta’kidlamoqda.




7-rasm: 2021-yilda dunyo bo‘ylab islom moliyasi aktivlari qiymati (Milliard AQSH dollarida)[15]

7-rasmda dunyo bo‘ylab islom moliyasi aktivlarining eng katta qismi – 2 trillion 765 millard (AQSh dollari) islom banklariga oid ekanligini, shuningdek, 713 milliardi (AQSh dollari) islom obligatsiyalari – sukukga, 238 milliard (AQSh dollari) islom fondlariga, 169 milliardi (AQSh dollari) boshqa islom moliyasi institutlari va 73 milliardi (AQSh dollari) takoful – islom su’g‘urta sanoati aktivlari ekanligi tasvirlangan.

Ushbu ma’lumotlar islom moliya sektorida aktivlarning sezilarli darajada mavjudligi va taqsimlanishidan dalolat beradi. Aktivlarning eng katta ulushi islom banklariga tegishli bo‘lsa, ikkinchi o‘rinda sukuk (islom obligatsiyalari), islom fondlari va boshqa moliya institutlari turadi. Islomiy sug‘urtaga ishora qiluvchi “Takaful” aktivlarning kichikroq, ammo baribir sezilarli qismiga egadir. Bu taqsimot islomiy moliyaning xilma-xilligi va o‘sishini ta’kidlab, an’anaviy moliyaviy tizimlarga munosib alternativ bo‘lib, butun dunyo bo‘ylab musulmon investorlarning ehtiyojlarini qondira olishidan dalolat beradi.

Yuqoridagi fikrlarning isboti sifatida quyidagi 8-rasmda islom moliyasining bugungi kundagi eng katta qismi, ya’ni 70 foizi islom banklariga oid ekanligini, islom obligatsiyalariga keying ulush 18 foiz to‘g‘ri kelishini anglab olish mumkin bo‘ladi. So‘nggi yillarda shiddat bilan o‘sib kelayotgan boshqa sohalar takoful va boshqa moliyaviy sanoat turlari butun islom moliyasi tarkibida 10 foizdan kamroq ulushga ega ekanligini quyidagi rasm ko‘rsatib turibdi.




8-rasm: 2021-yilda dunyo bo‘ylab islom moliyasi aktivlari qiymati (foizda)[16]

15 ICD – Refinitiv Islamic Finance development report 2022: Embracing change, p-8.
16 ICD – Refinitiv Islamic Finance development report 2022: Embracing change, p-8.

Islom banklari haqida o‘tgan asrning ikkinchi yarmidan keng jamoatchilikka ma’lumot berila boshlandi, islom qoidalari asosida boshqariladigan islom moliya institutlari ham o‘sha davrlardan keng ommalashib bordi. Ancha boy tarixga ega bo‘lgan an’anaviy bank tizimiga muqobil bo‘lgan bu yangi tizim hozirga qadar faqat rivojlanib, aktivlari esa faqat o‘sib kelmoqda.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, mazkur tendensiyani O‘zbekistonda ham davom ettirish uchun avvalo islom darchalarini joriy etishga to‘g‘ri keladi. Islom darchasi ko‘p hollarda mamlakatlarda islom moliya tizimi yoki islom moliyasi bo‘yicha qonunchilik mavjud bo‘lmaganda tashkil etiladi. Chunki islom darchasi ma’lum mamlakatning mavjud qonunlari va huquqiy bazasi asosida chegaralangan miqdordagi xizmatlar va mahsulotlarni an’anaviy bankning tarkibiy bo‘linmasining mahsuloti sifatida taklif etadi. To‘laqonli islom bankchiligi xizmatlari va mahsulotlari esa, odatda o‘sha mamlakatda tegishli qonunlar ishlab chiqilganidan keyin taqdim etiladi. Shu sababli, ko‘pincha islom darchalari tashkil qilishdan quyidagi maqsadlar ko‘zlash maqsadga muvofiq bo‘lar edi:

1) Mamlakatda islom moliya xizmatlariga talab darajasini o‘rganish;
2) Ortiqcha xarajatlarsiz banklardagi mavjud infratuzilma (binolar, xodimlar va hokazo) asosida islom moliya xizmatlarini taklif qilish;
3) Tashkil etilgan islom darchalari faoliyatini o‘rganish va chuqur tahlil qilish orqali, mamlakatda islom moliyasi va bankchiligiga oid qonun ishlab chiqilishi yuzasidan amaliy takliflar berish;
4) Aholi va xususiy tarmoq vakillarining moliyaviy savodxonligini oshirish orqali ularning mamlakat iqtisodiyotidagi ishtirokini oshirish;
5) Islom darchasi faoliyati natijasi tahlili asosida banklarning kelajakdagi rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Sh. Abdullayeva. Bank ishi. Darslik. Toshkent moliya instituti. –2003-yil. 3-bet.
2. Gresh G. F. The rise of Islamic banking and finance in Central Asia //Al Nakhlah. – 2007. – T. 9.
3. Atabek Sharipov and Nodir Yuldashev Islamic finance and markets in Uzbekistan October 1 2019 https://www.lexology.com/library/detail.aspx?g=9aaf1dd8-417e-408c-ba8f-79e069edf65c.
4. J. Imamnazarov Development opportunities of Islamic finance in Uzbekistan // SAI. 2023. №A1. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/development-opportunities-of-islamic-finance-in-uzbekistan (дата обращения: 24.02.2024).
5. Tursunov A. S. et al. Establishment Of Islamic Banking In Uzbekistan //European Proceedings of Social and Behavioural Sciences. – 2021.
6. Malik B. A. Halal banking in post-soviet central Asia: Antecedents and consequences //Marketing and Branding research. – 2015. – T. 2. – C. 28-43.
7. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi. https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats/1569298.
8. Muallif tomonidan ishlandi.
9. ICD – Refinitiv Islamic Finance development report 2022: Embracing change, p-8.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 2**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.